

ISSN: 2181-9416



ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОИЙ, ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ISSN 2181-9416
Doi Journal 10.26739/2181-9416

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

2 СОН, 1 ЖИЛД

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 2, ВЫПУСК 1

LAWYER HERALD

VOLUME 2, ISSUE 1



TOSHKENT-2022

Мундарижа

КОНСТИТУЦИЈАВИЙ ҲУҚУҚ. МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ.
МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ

- 1. БАҲРОНОВ Шерзод Холмуродович**
НОРМА ИЖОДҚОРЛИГИДА ЭКОЛОГИК ТАЛАБЛАР ҲИСОБГА ОЛИНИШНИ
ТАЪМИНЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМИ8
- 2. НЕМАТОВ Жўрабек Нематиллоевич**
ЎЗБЕКИСТОНДА ҲИМОЯ ОРДЕРИНИНГ МАЪМУРИЙ АКТ МИСОЛИДАГИ
МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ 16
- 3. РАБИЕВ Шерзод Миржалилович, АЗИЗОВ Бунёд Мавлонович**
МАЪМУРИЙ МАЪМУРИЙ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШДА “МАЪМУРИЙ
КЎМАКЛАШ”НИНГ АҲАМИЯТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЗАРУРАТИ22

ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ИҚТИСОДИЙ ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ.
ҲАКАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ

- 4. ОКЮЛОВ Омонбой**
“СНОСЛАР” ЖАРАЁНИДА ХАР БИР МУЛҚДОР ҲУҚУҚЛАРИ ВА ҚОНУНИЙ
МАНФААТЛАРИ ТАЪМИНЛАНИШИ ШАРТ.....30
- 5. ГУЛЯМОВ Саид Саидахарович, БОЗАРОВ Сардор Сохибжонович**
ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СФЕРЕ
ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....36
- 6. АЧИЛОВА Liliya Ilxomovna**
VIRTUAL TURIZMNI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY JIHATLARI43
- 7. МУРОТОВ Журабек Сафарович**
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАЛАРИГА (ТОВАР, ХИЗМАТ) БЎЛГАН ҲУҚУҚЛАР .50
- 8. ВОСТРИКОВА Виктория Сергеевна, ЧЕРКАШИНА Ирина Александровна**
ДОКТРИНА ФРУСТРАЦИИ НА ПРИМЕРЕ РЕШЕНИЯ ВЕРХОВНОГО СУДА
СОЕДИНЕННОГО КОРОЛЕВСТВА55
- 9. АБРОРОВА Камола Саидмухторовна**
ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА
В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН63

МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ

- 10. МАДРАҲИМОВА Гулжаҳон Рузимбой қизи**
ЙИЛЛИК ҲАҚ ТЎЛАНАДИГАН МЕҲНАТ ТАЪТИЛИНИ ҚЎЛЛАШ АМАЛИЁТИ
ВА ТАРТИБГА СОЛУВЧИ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАР
(РИВОЖЛАНГАН ХОРИЖ ДАВЛАТЛАРИ ТАЖРИБАСИ МИСОЛИДА)70

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ, ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ.
КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ

- 11. ИБРОҲИМОВ Жамшид Абдуғофур ўғли**
ТЕРРОРИЗМНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ЖИНОЯТИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК ВА УНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ79
- 12. ВОХИДОВ Маҳкам Мубинович**
ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ВОССТАНОВЛЕНИЯ
НАРУШЕННЫХ ПРАВ ЖЕРТВ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И ЗЛОУПОТРЕБЛЕНИЯ ВЛАСТЬЮ В
РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....86

13. ИСЛОМОВ Бунёд Очилович
ОБСТОЯТЕЛЬСТВА, СМЯГЧАЮЩИЕ НАКАЗАНИЕ И ИСКЛЮЧАЮЩИЕ
ПРЕСТУПНОСТЬ ДЕЯНИЯ ПО УГОЛОВНОМУ КОДЕКСУ РЕСПУБЛИКИ БОЛГАРИЯ
(СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ) 92

14. БОЙДЕДАЕВ Садирдин Абдусатторович
КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ИЖТИМОИЙ ЗАРУРАТИ 99

**ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ. КРИМИНАЛИСТИКА,
ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ҲУҚУҚ ВА СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ**

15. АБДУЛЛАЕВ Рустам Кахраманович
ҲОДИСА СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИНГ КРИМИНАЛИСТИК
ТАЪМИНОТИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ 107

16. ЧУРЯКОВ Эркин Ибрагимович
СУД-БАЛЛИСТИКА ЭКСПЕРТИЗАСИДА ЭКСПЕРТ ЭКСПЕРИМЕНТИНИНГ ЎРНИ 114

ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

17. РАХМАНОВ Шухрат Наимович
ЕВРОПА ИТТИФОҚИДА МИГРАЦИЯВИЙ ЖАРАЁНЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ
ШАРТНОМАВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ 119

18. USMANOVA Surayo
YEVROPA ITTIFOQIDA TURIZM: OMMAVIY HUQUQIY JIHATLARI TANLILI 126

19. ХАМДАМОВА Фируза
ПРАВОВОЙ СТАТУС РОБОТОВ В МЕЖДУНАРОДНОМ ГУМАНИТАРНОМ ПРАВЕ 131

20. КАРИМОВ Оятилло Халимович
ПОНЯТИЙНЫЙ АНАЛИЗ ЭКСТРАДИЦИИ В МЕЖДУНАРОДНОМ И
НАЦИОНАЛЬНОМ ПРАВЕ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ 135

21. АЪЗАМХУЖАЕВ Умидхон Шавкат угли
МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ТРАНСПОРТНО-КОММУНИКАЦИОННЫХ
СВЯЗЕЙ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЕВРОПЫ 141

22. ОЧИЛОВ Шермат Рашидович
ТЕРРОРИЗМГА ҚАРШИ КУРАШДА МИНТАҚАВИЙ ҲАМКОРЛИКНИНГ
ХАЛҚАРО-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ 149

23. САЛИЕВА Шахсанем Уснатдиновна
ФОРМИРОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ 154

24. МИРЗАМУРОДОВ Шохрух Олимович
МЕЖДУНАРОДНОЕ ДОГОВОРНО-ПРАВОВОЕ ЗАКРЕПЛЕНИЕ
РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНО И ЮЖНОАЗИТСКОМ
МАКРОРЕГИОНЕ В РАМКАХ ШОС 161

ҲУҚУҚИЙ АМАЛИЁТ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

25. NAITO Shintaro
OVERVIEW OF DRAFTING LEGISLATIVE BILLS IN JAPAN—FOCUSING ON AVOIDING
INCONSISTENCY IN LAWS 169

26. ТОЖИЕВ Фурқат Шомуродович
ЮРИДИҚ ХИЗМАТЛАР ФАОЛИЯТИДА ҲУҚУҚИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ
НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ МУАММОЛАРИ: ЎЗБЕКИСТОН МИСОЛИДА 184

27. ИЛЬЯСОВ Улугбек Бахтиёрович
ОСНОВНЫЕ НОВЕЛЛЫ ИНВЕСТИЦИОННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА 190

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ ВЕСТНИК ЮРИСТА LAWYER HERALD

ACHILOVA Liliya Ilxomovna

Toshkent davlat yuridik universiteti “Biznes huquqi” kafedrasida dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd)
E-mail: Liliya.achilova@mail.ru

VIRTUAL TURIZMNI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY JIHATLARI

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): Achilova L.I. Virtual turizmni tashkil etishning huquqiy jihatlari // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2022) В. 43-49.

 2 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2022-2-6>

ANNOTATSIYA

Maqolada virtual turizm, uning pandemiya davomida rivojlanish tendensiyasi va mazkur turizm turining huquqiy jihatlari tahlil qilingan. Bunda muallif “virtual reallik”, “virtual turizm” tushunchalarini tahlil qilgan, bu bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirgan. Yangi tadbirkorlik subyektlari sifatida rivojlanib kelayotgan hamda virtual turizm xizmatlarini ko'rsatayotgan “virtual korxonalar” tushunchasi va faoliyatiga to'xtalib o'tgan. Virtual turizm va virtual korxonalar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun qanday huquqiy asoslar mavjud, qaysilarini qabul qilish zarurati mavjudligi alohida tahlil qilingan. Mazkur holat yuzasidan tegishli takliflar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Turizm, pandemiya, COVID-19, virtual turizm, virtual reallik, virtual korxonalar.

АЧИЛОВА Лилия Илхомовна

И.о. доцента кафедры «Бизнес право»
Ташкентского государственного юридического университета,
доктор философии по юридическим наукам (Phd)
E-mail: Liliya.achilova@mail.ru

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ВИРТУАЛЬНОГО ТУРИЗМА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются виртуальный туризм, тенденции его развития в период пандемии и правовые аспекты этого вида туризма. Автор анализирует понятия «виртуальная реальность», «виртуальный туризм» комментируя их. Обоснованы концепции и деятельность «виртуальных предприятий», которые развиваются как новые предприятия и предоставляют услуги виртуального туризма. При этом отдельно анализируются правовые основы регулирования общественных отношений, связанных с виртуальным туризмом и виртуальными предприятиями, и какие из них необходимо принять. По этому поводу были сделаны соответствующие предложения.

Ключевые слова: Туризм, пандемия, COVID-19, виртуальный туризм, виртуальная реальность, виртуальное предприятие.

ACHILOVA Liliya

Acting Associate professor of Business Law Department at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law
E-mail: Liliya.achilova@mail.ru

ANNOTATION

The article analyzes virtual tourism, its development trends during the pandemic and the legal aspects of this type of tourism. The author analyzes the concepts of “virtual reality”, “virtual tourism” and comments on them. The concepts and activities of “virtual enterprises” that develop as new enterprises and provide virtual tourism services are substantiated. Separately, it is analyzed what legal framework exists for the legal regulation of social relations related to virtual tourism and virtual enterprises, and which of them must be adopted. Appropriate proposals were made in this regard.

Keywords: Tourism, pandemic, COVID-19, virtual tourism, virtual reality, virtual enterprise.

Turizm 2020-yilga qadar bo‘lgan oxirgi o‘n yillik davomida faqat o‘tib kelayotgan soha bo‘lib keldi. Har o‘ninchi ishchi o‘rin turizm bilan bog‘liq edi va u asosiy daromad olib keluvchi sohalar ichida 3-o‘rinda turardi. Jahon turizm tashkilotining hisobotiga ko‘ra dunyo turizmi COVID-19 pandemiyasi tufayli 1 trln. dollari atrofida zarar ko‘rdi. Bu ikkinchi jahon urushi vaqtidan buyon kuzatilgan eng katta inqiroz hisoblanadi.

Bu sohada 100 milliondan ortiq aholi band bo‘lgan va ular ishsiz qolishdi [1]. Vaksina paydo bo‘lganiga qaramasdan hali-hamon koronavirus xavfi saqlanib turibdi, uning yangi va yangi shtammlari aniqlanmoqda.

Ana shunday sharoitda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (hozirgi Turizm va madaniy meros vazirligi) pandemiya paytida onlayn turizm yo‘lga qo‘yilishi haqida ma‘lum qildi. World Influencers Network (Xalqaro inflyuenserlar tarmog‘i) asoschisi Behruz Hamzayev bu haqida fikr bildirar ekan, takliflarini bildirib o‘tadi. Uning fikricha, onlayn turizmni tashkil etishda gidlarga diqqatga sazovor joylarga, jumladan, qadimiy ziyoratgohlarga kirib, o‘sha yerdan jonli efirlar qilib, ijtimoiy tarmoqqa joylashlariga imkoniyat yaratib berish lozim. Videoni tomosha qilish 50 sent yoki 1 dollar qilib qo‘yilsa, ko‘pchilik uchun hamyonbop bo‘ladi va shunga yarasha talab ham yuqori bo‘ladi.

Mutaxassisning fikricha, bu orqali ham virtual tarzda mablag‘ topish, ham sayyohlar ong ostiga O‘zbekistonga karantindan keyin, albatta, kelish fikrini singdirsa bo‘ladi.

Haqiqatdan ham 2020-yil 11-aprelda bosh vazir o‘rinbosari, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va uning huzuridagi Milliy PR markazi O‘zbekistonda turizm bo‘yicha virtual sayohatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi online-tourism.uz saytini yo‘lga qo‘yish ustida ishlanayotganligini, bu O‘zbekiston bo‘ylab virtual sayohat qilish imkonini taqdim etuvchi birinchi platforma bo‘lishini ma‘lum qilgan edi [2].

Ma‘lumki, turizm asosan bir-biridan mustaqil kichik biznes egalaridan tashkil topgan soha hisoblanadi. Mana shu kichik biznes egalarini inqirozdan qutqarish uchun ham mazkur loyiha yo‘lga qo‘yildi.

Aziz Abduhakimovning ta‘kidlaganidek, rejaga ko‘ra ushbu sayt asosan uch yo‘nalishni qamrab olishi kerak edi:

1. Sayyohlar uchun. U O‘zbekiston bo‘ylab virtual turlarni amalga oshirish imkonini beradi.

2. Turistik soha vakillari uchun. Mehmonxonalar egalari va menejerlari, turoperatorlar, mehmon uylari, gidlar va boshqalar bilan hamkorlik kuchaytirilib, sohani yanada rivojlantirishga oid ishlar amalga oshiriladi. Platforma yordamida dunyodagi so‘nggi trendlar, yangiliklar bo‘yicha vebinarlar, onlayn mushohadalar yo‘lga qo‘yiladi, onlayn qo‘llanmalar taqdim etiladi. Inqiroz va undan keyingi davrda ularning bandligi ta‘minlanadi.

3. Turizmga oid yangi loyihalarni amalga oshirishni istagan startaperlar uchun. Bunda turizmni rivojlantirishga oid yangi loyihalar, startaperlar haqidagi ma‘lumotlar jamlanadi, onlayn maslahat berish yo‘lga qo‘yiladi. Kreativ g‘oyalarga ega kishilarga loyihalarni amalga oshirish uchun grantlar ajratilishi rejalashtirilgan [3].

Dunyoning ko'plab davlatlarida virtual turizmga pandemiya davridagi texnologiya sifatida ta'rif berilmoqda [4]. Ayrimlar esa pandemiyadan so'ng ham virtual turizmga bo'lgan talab yetarlicha saqlanib qolishini bayon etmoqda. Xususan, A.Kazansevning fikricha, virtual turizm marketing vositasi sifatida yashashda davom etadi [5].

Nisbatan yosh soha bo'lishiga qaramasdan, virtual turizmning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganish allaqachon boshlab yuborilgan. Shu sababdanmi mazkur sohani ilmiy-amaliy o'rganayotgan shaxslarning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi.

Xususan, D.Gordeyevaning ta'kidlashicha, sayohatlardagi virtual reallik deganda tomoshabinga butun atrof-muhitni 360 darajada ko'rish imkonini beruvchi interaktiv tasvirlar yoki videolar yig'indisi hisoblanadi. Ma'lum bir nuqtadan olingan oddiy videodan farqli o'laroq VR butun atrofni qamrab oladi.

Shu bilan birga, virtual turizm tushunchasiga ham bir nechta ta'riflar ishlab chiqilgan. Quyida ulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz.

A.N.Zemlyaxunning ta'kidlashicha, virtual tur uch o'lchovli, ko'p elementli makonni real ko'rsatish usuli [6].

I.A.Latipov fikricha, virtual turizm – virtual sayohatlarni tashkil qiluvchi yoki amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyat turi [7].

Viktoriya Shamlikashvilining qayd etishicha, virtual turizm – bu shaxsning zamonaviy kompyuter texnologiyalari va aloqa tarmoqlaridan foydalangan holda istalgan masofadagi obyekt haqida real ma'lumotlar orasidan u yerga bormagan holda eng real tasavvuriy ma'lumotlarni yaratish va olish imkonini berishga qaratilgan faoliyati [8].

“Virtual turizm” tushunchasi nafaqat mamlakatning diqqatga sazovor turistik obyektlari, balki undagi kafe, klub va boshqa ovqatlanish hamda ko'ngilochar joylarning 3D-panoramadagi ko'rinishini ham qamrab oladi.

Y.A.Baykov esa virtual turizmni bu sayyoramizning eng ajoyib va ekzotik joylariga hamda undan tashqarida uyingizdan chiqmasdan tashrif buyurish imkonini beruvchi passiv turizm turi [9].

Avvalambor, ushbu turizm turi bilan eng qiziquvchan insonlar shug'ullanadi. Shu bilan birga, bundan sayohatga chiqish imkoniyati bo'lmaganlar ham foydalanishlari mumkin (nogironlar, qariyalar va ishonchsiz odamlar, xavfsizlik nuqtai nazaridan va boshqalar). Ammo ko'pincha, yaqin kelajakda ma'lum bir mamlakatga tashrif buyurmoqchi bo'lganlar u yoki bu sayohat variantini tanlash uchun virtual turlardan foydalanishadi.

Bir yomonning bir yaxshisi bo'ladi deganlaridek, koronavirus pandemiyasi virtual reallik (VR) texnologiyalarining rivojiga kuchli turtki berdi: virtual turizm ommalasha boshladi: VR orqali jahon muzeylari kolleksiyalarini o'rganishingiz va hatto Marsda sayr qilishingiz mumkin bo'ldi va buning hammasi o'z-o'zini izolyatsiya qilish rejimini buzmasdan amalga oshiriladi edi.

Pandemiyagacha bo'lgan davr virtual turizmga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunga ko'plab misollarni keltirish mumkin. Pandemiya bir necha yil oldin bo'lib o'tgan AQShning Las-Vegas shahrida bo'lib o'tgan Virtuoso Travel Week xalqaro uchrashuvi doirasida turizm sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan virtual texnologiyalarning taqdimoti o'tkazilgan. Masalan, 3D ko'zoynaklar yordamida mehmonxona nomerlarini boshdan-oyoq ko'zdan kechirish, shahar ko'chalari va plyajlarda sayr qilish; samolyotda, havo sharida uchish yoki dengiz bo'ylab yaxtada sayohat qilish kabi imkoniyatlar taqdim qilingan. Bu orqali turist agar o'sha hududga borsa, bu holat qanday takrorlanishini bevosita o'z ongida his qilgan.

Ilovalardan biri Las-Vegas ko'chalari mototsiklda sayr qilish imkonini bergan, bunda kunduzgi yoki kechki rejimni, harakat yo'nalishini, tezlik miqdorini foydalanuvchining o'zi tanlagan.

Yana bir ilova bilan esa quyosh tizimini va qo'shni galaktikalarni jonli tadqiq qilish mumkin bo'lgan.

Shuningdek, Dubaydagi Atlantis The Palm kabi mehmonxonalarni targ'ib qilish uchun virtual reallikdan foydalaniladi. Bunda mijoz mehmonxona haqidagi uzundan-uzun tavsifni o'qib, o'nlab sharhlar va fotosuratlarini o'rganish o'rniga, mehmonxona bo'ylab virtual sayr qilib, hamma narsani o'z ko'zlari bilan “ko'rishi” mumkin bo'ladi [10].

Ayrim dasturchilar esa boshqacha yo'l tutishgan. Ular bunda madaniy va ekoturizm namunalariidan foydalanishadi. Misol uchun, «EVEREST VR» dasturi mualliflari Everest choqqisiga

virtual sayohatni taklif qilishadi. «VR Museum of Fine Art» dasturi esa dunyo shedevrlari bilan mayda detallargacha tanishishga imkon beradi [11].

Bu har ikki tomon uchun yaxshi, negaki shu va shu kabi dasturlardan foydalanish pulli, haq evaziga amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan esa har kim ham Everestga chiqa olmasligi yoki dunyodagi barcha muzeylarni aylanish imkoniga ega emas. Bundan tashqari bu katta xarajat talab qiladi. Dasturlardan foydalanish narxi esa, odatda, hamyonbop bo'ladi.

Maqola debochasida ta'kidlanganidek, rejalashtirilgani kabi O'zbekistonda online-tourism.uz sayti faoliyati yo'lga qo'yildi, ammo sayt hali to'la-to'kis takomilga yetmagan. Shunga qaramasdan, unda ko'plab turistik obyektlarning 3D formatdagi tasvirlari joylashtirilgan bo'lib, bu sayyohlarni o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Bundan tashqari undan foylanish bepul asosda amalga oshiriladi.

VIRTUAL TURIZMNI TASHKIL ETISH BO'YICHA MASALALAR (KEYSLAR)

Virtual turizmni tashkil etish bo'yicha nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo davlatlari oldida turgan bir qator tashkiliy-huquqiy masalalar mavjud. E'tiborli tomoni shundaki, mazkur masalalar, asosan, amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirishga virtual turizm turlaridan kelib chiqqan holda yondashish talab qilinadi.

Telesayohat. Mazkur sayohat turi virtual turizmning an'anaviy turi bo'lib, uzoq yillik tarixga ega. Hozirgi telesayohat o'tgan asrning 80-90-yillaridagi yoki XXI asr boshlaridagi telesayohat emas. Bu bo'yicha yangi mediakontent turi ishlab chiqilgan. Misol uchun, Moskva shahridagi 13 metrlik ekran "Polyot" mediakompleksi doirasida Moskva uzra qush balandligida virtual parvoz qilishga imkon beradi. Robotlashgan platforma inson uchun real muhitni yaratadi.

Bu O'zbekistonda ham yo'lga qo'yilgan. "O'zbekiston uzra parvoz" loyihasiga ko'ra bir vaqtning o'zida 20 nafar tomoshabin 10 daqiqa ichida mamlakatning 7 ta hududi bo'ylab parvoz qilishi mumkin bo'ladi.

Uzbekistan360.uz va online-tourism.uz saytlarini takomillashtirish orqali mazkur qamrovni yanada kengaytirish mumkin.

Virtual reallik. Tayyor videolarni tomosha qilish yaxshi, lekin virtual bo'lsa ham, o'zingiz yangi hududlarni o'rganishingiz ancha qiziqroq. Bunda virtual reallik (VR) tizimlari yordam beradi, masalan, ana shunday tizimlardan biri Atlas VR, Rossiya kosmik tizimlari korxonasining sho'ba korxonasi TerraTech tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur tizimda sayohat zonasining virtual tasviri Yerni masofadan turib zondlashning haqiqiy sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida aerofotosurat materiallari, shu jumladan, dronlardan olingan holda yaratilgan. Reallik virtual bo'lsa-da, ko'rsatilgan dunyo haqiqiy hisoblanadi. Siz stulga o'tirasiz, VR ko'zoynak taqasiz va joystiklar yordamida harakat yo'nalishini tanlab, sayohatga chiqasiz.

Ammo buning uchun jamiyatning internet bilan ta'minlanganlik darajasi va kompyuter savodxonligi yuqori bo'lishi talab qilinadi.

Onlayn sayohat ham virtual sayohat turlaridan bo'lib, bunda turist haqiqiy sayohatga virtual qo'shilish orqali sayohat qiladi. Asosan, eko- va etnoturizmga qo'llaniladi.

Albatta, mazkur sayohat turlarining barchasi yaxshi, ammo uni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari bo'lishi lozim. Aynan mana shu jihatga alohida e'tibor qaratish kerak. Virtual turizmni amalga oshirish uchun virtual korxonalar yoki ularning tarmoqlari vujudga kelmoqda.

Virtual korxonalar – bu asosan elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda, birgalikda ishlab chiqarish jarayonida o'zaro aloqada bo'lgan geografik jihatdan ajratilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni birlashtirgan korxonalar [12].

Virtual korxonalar oddiy turistik korxonaga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega:

geografik omil ta'siri bartaraf etiladi. Korxonani nafaqat bitta, balki bir nechta davlat hududidagi jismoniy va yuridik shaxslar tashkil etishi mumkin;

axborot resurslaridan bir vaqtning o'zida bir nechta korxonalar tomonidan birgalikda foydalanish mumkin;

ishtirokchilar faoliyatini ichki muvofiqlashtirish yaxshilanadi;

binolarni ijaraga olish yoki sotib olish kabi xarajatlar tejaladiv [13].

Har qancha qulayliklarga ega bo'lmasin, virtual korxonalarning quyidagi kamchiliklari bor:

barcha munosabatlar virtual – masofadan turib amalga oshiriladi. Mijoz va kompaniya vakili

bir-birini ko'rmaydi. Bu soxta tadbirkorlar mijozlarni chuv tushirishiga sabab bo'lishi ham mumkin; virtual korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va faoliyatining huquqiy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ammo bir qator mamlakatlarda turistlar uchun tur tashkil etish uchun virtual korxonalar turoperatorlar va turagentliklar sifatida muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

AQShning TripAdvisor korxonasi virtual korxonalar shaklida tashkil qilingan bo'lib, 49 ta mamlakat auditoriyasini qamrab oladi. Korxonalar xizmatlarni sotishdan olinadigan komissiya shaklida daromad oladi. Boshqa virtual korxonalar kabi distribyutorlik – vositachilik xizmatlarini ko'rsatadi [14].

HUQUQIY MUNOSABATLAR

Virtual turizm ham, bu bo'yicha turoperatorlik, turagentlik xizmatlarini ko'rsatuvchi virtual korxonalar ham yangi soha va yangi tadbirkorlik turi bo'lganligi, hali uncha ommalashmaganligi sababli mazkur sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar zarur bo'ladi.

Garchi virtual turizm bo'yicha shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni Fuqarolik kodeksi va ushbu sohadagi boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solish mumkin bo'lsa-da, virtual korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish tartibini qonunchilik hujjatlarida alohida tartibga solish talab qilinadi. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek virtual korxonalar bir qator afzalliklar bilan birga bir qator kamchiliklarga ham ega. Mazkur kamchiliklar tufayli turist jabr ko'rsa, bu virtual turizm rivojiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Qisqacha aytganda, turist virtual turoperatorlardan jabr ko'rdimi, demakki, virtual turizm ham zarar ko'radi.

Shu bilan birga, nafaqat virtual turizm, balki butun virtual olamda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasida qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shulardan biri "Axborot xavfsizligi to'g'risida" qonundir. Ushbu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Loyiha 2022-yil 26-yanvar kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ko'rib chiqildi. Palata muhokamasida DXX mas'uli kiberxavfsizlik yo'nalishidagi bir qancha xavf va muammolarni sanab o'tdi. Jumladan:

qonunchilikda axborot xavfsizligiga doir huquqiy normalar faqat qisman amalga oshirilgan;

muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida axborot tizimlari va resurslarining xavfsizlik tizimlarining baholash usullari mavjud emas.

Bunga qo'shimcha ravishda axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati haqida so'z yuritilgan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" Qonun bundan qariyb 20 yil oldin – 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 2003-yil 7-fevraldan kuchga kirgan. Shunda ham uning 4 tagina moddasida axborot xavfsizligi haqida so'z brogan. Bu esa bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari qayta ko'rib chiqishga muhtoj ekanligini anglatadi.

Virtual turizm ham hamma jarayon o'z nomi bilan virtual bo'lib, taraflar bir-birlarini real hayotda, odatda, ko'rmaydilar. Ushbu holatda shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi, ularning noinsof, g'araz va past niyatdagi shaxslar tomonidan qo'lga kiritilishi ehtimoli yuqori. Garchi insofli fuqarolik muomalasi ishtirokchisi bilan munosabatga kirishilsa-da, uchinchi taraf tomonidan ma'lumotlarni qo'lga kiritish va ulardan g'arazli niyatlarda foydalanish ehtimoli doimo mavjud bo'ladi. Shu sababli mazkur qonunning qabul qilinishi nafaqat davlat tashkilotlari, balki fuqarolarga taalluqli axborot xavfsizligi uchun ham muhim hisoblanadi.

Mazkur qonunni O'zbekiston uchun qabul qilish zarurati Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP Digital Development Initiative Programme) tomonidan 2005-yildayoq bayon qilingan bo'lib, bu zarurat hozirgi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmaganligini ko'rishimiz mumkin [15].

O'rganilgan ma'lumotlar va tahlillarda **virtual turizm** rivojiga pandemiya turtki bo'ldi va mazkur turizm turida ishtirokchilar sonida "katta sakrash" kuzatilganini ko'rish mumkin. Birgina Rossiyaning Tripster kompaniyasi 2020-yilda 10 mingdan ortiq virtual ekskursiyaga bilet sotgan. Sputnik8 kompaniyasi esa 10 mingga yaqin bilet sotgan va bu mazkur kompaniyalar uchun rekord ko'rsatkichlar hisoblanadi [16]. Shu bilan birga, vaksinaning yaratilishi, insonlarda asta-sekinlik bilan virusga nisbatan immunitetning shakllanishi tufayli an'anaviy turizmning bozordagi ulushi 2021-yilda bir oz o'sdi. Ammo UN WTO ma'lumotiga ko'ra 2021-yilda turizm 2020-yilga nisbatan 4 foizga o'sib,

475 million nafar xalqaro safarni tashkil qilgan bo'lsa-da, mazkur ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 72 foizga pastdir [17]. Ekspertlar ko'rsatkichlar 2024-yilga kelibgina 2019-yilnikiga yetishi mumkinligini prognoz qilmoqdalar.

Mazkur holat esa virtual turizmning ahamiyati hali-beri kamaymasligini anglatadi. Bu quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

- 1) Mazkur sayohat turi xavfsiz bo'lib, uydan chiqmasdan turib amalga oshirilishi mumkin, ya'ni uchinchi shaxslar bilan kontaktga kirishish va COVID-19ni yuqtirish ehtimoli past;
- 2) Mazkur sayohat turi kamxarajat. Narxi 3-6 yevro atrofida turadi;
- 3) Dunyoning istalgan masofasidagi obyektни 3D yoki 5D formatda tanishish mumkin.

Bundan tashqari pandemiyadan keying davrda ham virtual turizmning ahamiyati saqlanib qoladi. Bunda virtual turizm:

- 1) Turfirmalar marketingida;
- 2) Muzeylar faoliyatida keng qo'llanilishi mumkin. Chunki shundoq ham muzeylar sig'imi barcha turistlarni sig'dira olmaydi. Misol uchun, Luvrda;
- 3) Turli sabablarga (nogironligi, keksaligi va h.k.) ko'ra sayohat qilish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun har tomonlama qulay hisoblanadi.

Shuningdek, virtual turizmning huquqiy asoslarini mustahkamlash, uni qonun darajasida turizmning bir turi sifatida tan olish choralari ko'rilishi kerak. Garchi shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun amaldagi fuqarolik qonunchiligi qo'llanilsa-da, aynan virtual turizmga xos huquqiy munosabatlarni ommaviy va xususiy tartibga solish bo'yicha norma ijodkorligi ishlarini amalga oshirish zarur.

Darhaqiqat, virtual turizm xizmatlarini ko'rsatish onlayn tarzda amalga oshiriladi va buni yuqorida aytib o'tilganidek, virtual korxonalar shaklidagi turoperator va turagentliklar amalga oshirmoqda. Bu mutlaqo yangicha tadbirkorlik subyekti bo'lib, mazkur holatda mijozlarni chuv tushirish holatlari kuzatilishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda mazkur turdagi korxonalar faoliyatining axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq. Bu xususda yuqorida to'xtalib o'tildi.

Qisqacha qilib aytganda, axborot texnologiyalari asrida ijtimoiy munosabatlar global miqyosda katta tezlikda o'zgarib borar ekan, biz yuristlar, iqtisodchilar va boshqa kasb egalarining shunga mos tarzda harakatlanishimiz talab etiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Chuqur inqiroz yoqasidagi turizm: uni qutqarishning chorasi bormi? - Behruz Hamzayev bilan suhbat. https://kun.uz/uz/34584281?utm_source=uznet.press&utm_campaign=topic
2. Aziz Abduhakimov: O'zbekistonda "onlayn turizm" va "masofaviy sport" rivojlantiriladi. <https://daryo.uz/2020/04/11/aziz-abduhakimov-ozbekistonda-onlayn-turizm-va-masofaviy-sport-rivojlantiriladi/>
3. Баликчи туманидаги "Уч булоқ" зиёратгохи в Андижане, Узбекистан: виртуальный тур, 3D фото, панорамные снимки, интерактивная версия – <https://uzbekistan360.uz/ru/location/14epj>
4. Дарья Гордеева. Виртуальный туризм: технологии во время пандемии (fcti.by)
5. Андрей Казанцев. Виртуальные путешествия и сложные прогнозы: как цифровые сервисы меняют туристический рынок | Rusbase (rb.ru)
6. Землянухин А.Н. Некоторые характеристики применения информационных технологий в туристическом бизнесе // Моделирование, оптимизация и информационные технологии. – 2014. – № 1. Стр. 123
7. Латыпов И.А. О некоторых философских аспектах формирования субкультуры виртуального туризма: его новая история или только «story»? // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 2. Стр. 102
8. Шамликашвили, В.А. Виртуальный туризм как новый вид туризма. Креативная экономика, 2014, № 10(94), стр. 132
9. Байков, Е.А. Инновационные аспекты развития куль турно-познавательного туризма

в современных условиях. Петербургский Экономический журнал, № 2, 2014. Стр. 60.

10. Лихолетов, В. В., Лисиенкова, Л. Н., Баранова Е.В. Виртуальный тур – как инструмент маркетинга в туризме / В. В. Лихолетов, Л. Н. Лисиенкова, Е. В. Баранова // Экономика и менеджмент инновационных технологий. – 2016 – № 1 [Электронный ресурс]

11. Лысак, О. Г. VR и AR – технологии в сфере туризма и сервиса. Интеграция туризма в экономическую систему региона: перспективы и барьеры / материалы II Международной научно-практической конференции, (24 – 25 апреля 2020 года, г. Ор л). – Ор л: ОГУ имени И. С. Тургенева, 2020. Стр. 272

12. Юрасов А.В. Электронная коммерция: Учебное пособие. – М.: Дело, 2003. – 480 с.

13. Шайтура С.В., Муминова С.Р., Кожаев Ю.П., Винтова Т.А. Виртуальные предприятия в туризме. СЕРВИС plus, 2019, том 13, №1, Стр. 22

14. Дик В.В., Шайтура С.В., Уринцов А.И. Опыт международного сотрудничества в области стандартизации и сертификации учебного контента // Славянский форум. - 2015.- № 2 (8). - с. 60-67.

15. Арипов А.Н. ва бошқалар. Давлат бошқарувида ахборот-коммуникация технологиялари. Умумий тушунчалар. Жаҳон тажрибаси. Ўзбекистонда жорий этиш истиқболлари. Тошкент – 2005. 103-бет.

16. Онлайн-путешествия стали хитом сезона пандемии. <https://www.vedomosti.ru/technology/articles/2020/12/10/850527-onlain-puteshestviya>

17. Отчёт UNWTO: международный туризм в 2021 году (ostrovok.ru)